


# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 16-avgust, № 165 (8788) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

**15-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.**

O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston va Rossiya Prezidentlari joriy yilning 26 – 28-may kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini muhokama qildilar.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish, ikki mamlakat yetakchi korxonalari va hududlari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, qo‘shma investitsiya loyihalari va gumanitar dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan choralar ko‘rish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Suhbat chog‘ida bo‘lajak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasi ham ko‘rib chiqildi.

**O‘zA.**

## O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik beshinchi yalpi majlisi to‘g‘risida

# AXBOROT

**15-avgust kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik beshinchi yalpi majlisi o‘z ishini boshladi.**

Unda Senat, hukumat a’zolari, vazirlik va idoralar vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o‘tkazilgan yalpi majlisni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog‘idagi sahifasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritib borildi.

Senatning yalpi majlisida “O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

Qonun bilan tasdiqlanayotgan Tadbirkorlik kodeksida 100 dan ortiq qonunchilik hujjatlarini unifikatsiya qilish nazarda tutilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Shuningdek, kodeksda fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo‘lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratish, xususiy mulk, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish asosiy vazifa sifatida belgilanmoqda.

Kodeksda tadbirkorlik faoliyatining asosiy prinsiplari unifikatsiyalangan holda mustahkamlangan: qonuniylik, tadbirkorlik erkinligi, tadbirkorlik subyektlari tengligi, halol raqobat, korrupsiyadan xolilik va boshqalar.

Kodeks bilan tadbirkorlik subyektlari kichik, o‘rta va yirik toifalarga ajratilmoqda (amalda toifa sifatida faqat kichik tadbirkorlik subyekti mavjud edi).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lmagan faoliyat turlari belgilangan holda ularga qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish huquqi berilmoqda.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning chegaralari va tartibga solish shakllari belgilanmoqda hamda xalqaro standartlarga muvofiq ayollar va yoshlar tadbirkorligi hamda ularni qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy etilmoqda.

Kodeksda ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy korxona, aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari ro‘yxati va ularni, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga, kodeksda biznes-inkubatorlarning huquqiy maqomi, maqsad va vazifalari belgilanmoqda hamda davlat korxonalariga raqobatni cheklovchi imtiyoz va preferensiyalar berish taqiqlanmoqda.



Tadbirkorlik kodeksining qabul qilinishi tarqoq qonunchilik hujjatlarini yagona hujjatga birlashtirish, tadbirkorlik sohasidagi qonunchilik hujjatlarini barqarorlashtirish, davlatning tadbirkorlik sohasiga aralashuvini kamaytirish, shuningdek, tadbirkorlik huquqi sohasida yagona yondashuvni belgilashga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Qonun qizg‘in muhokamadan so‘ng senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Shundan so‘ng “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun muhokama qilindi.

Mazkur qonun hukumat faoliyatini yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish va uning zamonaviy sharoitda samarali ishlashini ta’minlashga qaratilgan.

Qonun bilan Vazirlar Mahkamasining vazifa va vakolatlariga doir bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar mustahkamlanmoqda. Xususan, ijro etuvchi hokimiyatning iqtisodiyot, budjet, moliya, soliq, ijtimoiy, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi vakolatlari aniq belgilanmoqda.

Shuningdek, Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari va vazirlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi, ularning majburiyatlari, vazifalari hamda shaxsiy javobgarligi aniqlashtirilmoqda.

➔ 2

### E’tirof

## O‘ZBEKISTON – YANGI OLIMPIYA MAMLAKATI

*Fransiyaning yetakchi ommaviy axborot vositalari O‘zbekiston sportchilari “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlarida qo‘lga kiritgan tarixiy natijalarni yoritishda davom etmoqda.*




“O‘zbekiston sportchilari “Parij – 2024”da muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Jami 13 ta medal (8 oltin, 2 kumush va 3 bronza) qo‘lga kiritgan o‘zbek atletlari yozgi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan 200 dan ortiq davlatlar orasida 13-o‘rinni egalladi”, deyiladi “lagazetteaz.fr” axborot agentligi tarqatgan “O‘zbekiston – yangi Olimpiya davlati” sarlavhali maqolada.

➔ 3

### Raye Kvon CHUNG:

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING SA’Y-HARAKATLARI OROL DENGIZI EKOTIZIMINI TIKLASHDA SEZILARLI IJOBIY O‘ZGARISHLARGA OLIB KELADI

*Pan Gi Mun jamg‘armasi ijrochi direktori, BMT Bosh kotibining iqlim o‘zgarishi bo‘yicha sobiq maslahatchisi, Nobel mukofoti sohibi Raye Kvon Chung “Dunyo” AA uchun intervyu berdi va unda O‘zbekiston hamda jahon hamjamiyatining Orol dengizi ekotizimini tiklashga doir sa’y-harakatlari haqidagi fikrlari bilan o‘rtoqlashdi.*

### Dunyo nigohi

– Orol dengizining qurishi insoniyat tarixida biz guvohi bo‘lgan eng jiddiy ekologik fojialardan biridir. Shu yilning may oyida Nukusga amalga oshirgan tashrifim chog‘ida O‘zbekiston hukumati Orol dengizining qurishi natijasida jiddiy zarar ko‘rgan ekotizimni tiklash bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalarni qanday ro‘yobga chiqarayotganiga shaxsan guvoh bo‘ldim.

O‘zbekistonning Orol muammosini hal etish borasidagi sa’y-harakatlari juda hayratlanarli. Ishonchim komilki, bu tashabbuslar mintaqa ekotizimini sezilarli darajada o‘zgartirib, yashil hududlarni ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Orol dengizining qurigan tubida nafaqat yangi hayot yaratish, balki dengiz suvini qaytarishga ham harakat qilishimiz kerak. Orol dengizining qurishi oqibatida paydo bo‘lgan cho‘lni o‘rmonga aylantirish samarali qadam, ammo Orol dengiziga suvni qaytarish ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina suv sathi ko‘tarilib, baliqlar mintaqaga yana qaytadi va aholining yashash sharoiti yaxshilanadi.

Bu maqsadga erishish sug‘orish tizimini takomillashtirishni, paxta yetishtirishda suvni tejash uchun akvaponika, intensiv



bog‘dorchilik kabi yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo qiladi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston hukumati sug‘orish tizimini yangilash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni, masalan, akvaponikani faol joriy etayotganini alohida ta’kidlamoqchiman. Ushbu texnologiyalar suv resurslarini tiklashning eng samarali usullaridan biridir. Ayni paytda O‘zbekistonda paxta yetishtirish bo‘yicha ekologik jihatdan foydali loyiha ham amalga oshirilayotir.

➔ 3

## QISQA SATRLARDA

### Iqtisodchilar muzokara platformasi

*O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan “Iqtisodchilar muzokara platformasi”ning ilk uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.*

Uchrashuvni qo‘mita raisi Halilillo To‘raxo‘jayev kirish so‘zi bilan ochib, qo‘mita huzurida “Iqtisodchilar muzokara platformasi” tashkil etilishining asosiy maqsad hamda vazifalariga to‘xtalib o‘tdi.

Tadbirda iqtisodchilar, ekspertlar, xalqaro va milliy miqyosdagi tadqiqotchi olimlar tovar hamda moliya bozorlarida biznesni rivojlantirishning asosiy jihatlari, iste’molchilar va birja sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar haqida o‘z takliflarini bildirdi.

### Maxsus maktab-internatlar o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanmalar yaratildi

*Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Fuqaro muhofazasi instituti hamkorligida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o‘quvchilari uchun favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanishga o‘rgatuvchi o‘quv qo‘llanmalar yaratildi.*

Ushbu qo‘llanmalar taqdimotiga bag‘ishlangan tadbirda to‘g‘ri harakatlanishga o‘rgatuvchi 18 nomlanishdagi Brayl alifbosida chop etilgan o‘quv adabiyotlar, 40 ta mavzudagi surdotarjimon orqali elektron qo‘llanmalar ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar hamda Respublika markaziy ko‘zi ojizlar kutubxonasi vakillariga taqdim etildi.

Qo‘llanmalar yurtimizdagi barcha maktab-internatga yetkazilishi rejalashtirilgan.

**“Xalq so‘zi”.**

### 20-avgust – Tadbirkorlar kuni

# YANGI O‘ZBEKISTON

## ISHBILARMONLAR UCHUN QULAY, IQTISODIYOTI BAQUVVAT VA FAROVON MAMLAKATGA AYLANMOQDA

*Prezidentimizning tadbirkorlar bilan muloqoti islohotlarni chuqurlashtirish borasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etibgina qolmay, biznes egalari ongini chin ma’noda uyg‘otish, ularda bunyodkorlik ruhini yanada kuchaytirishga ham xizmat qilmoqda.*

*Mamlakat rahbariga har bir tadbirkor, mulkdor, biznes egasining fikri nima uchun muhim? Aytish mumkinki, ularning xohish-irodasi, o‘zgarishlarga nisbatan fikri, kelajak haqidagi tasavvurlarini anglash muammoli jihatlarni ilg‘ab olish va o‘z vaqtida yechim topishda zarur. O‘z navbatida, tadbirkorlarning murojaatlari sohadagi haqiqiy ahvolni ko‘rsatuvchi indikator, o‘zgarishlarni o‘rganish barometri, tahlil uchun kerakli ma’lumotlar hamdir. Bu yangi mexanizm tadbirkorlarning mas’ul muassasalar oldida sarson-sargardonligi oldini olmoqda. O‘zbekistonda yangi ishbilarmonlar sinfining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Buning samarasida tadbirkorlik ma’lum doira vakillari emas, balki oddiy xalq orasida ommalashayotgan katta tarmoqqa aylandi.*

➔ 4



## O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik beshinchi yalpi majlisi to‘g‘risida

# AXBOROT

1 Bundan tashqari, qonunda hukumat faoliyatining mas’uliyati va ochiqligini oshirishga qaratilgan qator muhim o‘zgartirishlar aks etgan. Jumladan, Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari va vazirlar har yili Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga mamlakatimiz hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yuzasidan hisobot taqdim etishi nazarda tutilgan.

Hukumat faoliyatida ish tartibini soddalashtirish uchun yangicha yondashuvni ta’minlash maqsadida mazkur qonun bilan Vazirlar Mahkamasi doirasidagi barcha masalalar hukumat majlislarida hal etilishi belgilab qo‘yilmoqda.

Shu bilan birga, vazirlarning turli yo‘nalishlar bo‘yicha mas’uliyati va shaxsiy javobgarligi kuchaytirilmoqda.

Jumladan, o‘zi rahbarlik qilayotgan vazirlikda ishni samarali tashkil etishi, biriktirilgan soha va tarmoqlarda yagona davlat siyosatini samarali olib borishi, uni rivojlantirish bo‘yicha natija va oqibatlar uchun shaxsan javobgar bo‘lishi belgilanmoqda.

Qizg‘in kechgan muhokamada senatorlar mazkur qonun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining turli darajalari o‘rtasida izchillik va harakatlarni muvofiqlashtirish tamoyiliga asoslanishi, bu esa samarali davlat boshqaruvining asosiy omili ekanini qayd etdi.

Muhokama yakunida senatorlar qonun davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishda, uning samaradorligi va aholi oldidagi mas’uliyatini yanada oshirishda muhimligini ta’kidlab, uni ma’qulladi.

Shundan keyin yalpi majlisda “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonliklar soni oshib bormoqda. Mavjud huquqiy mexanizmlar uning oldini olish hamda jabrlanuvchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yetarli samara bermayapti.

Oxirgi 3 yilda 2 mingdan ortiq fuqarolar sudlar tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan, shundan 86 foizi ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortganligi uchun javobgarlikka tortilgan.

Qonun bolalarni zo‘ravonlikning barcha shaklidan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Xususan, zo‘ravonlik tufayli jabrlangan shaxs ariza bilan tegishli vakolatli organlarga yoki sudga murojaat etishi, maxsus markazlarda, shuningdek, bepul telefon liniyasi orqali bepul huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olishi mumkinligi belgilanmoqda.

Qonun bilan ilk bor yangi institut joriy qilinmoqda. Zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalarga himoya orderi berish tartibi yo‘lga qo‘yilmoqda. Ushbu himoya orderi ichki ishlar organlari tomonidan o‘ttiz kun muddatgacha beriladi va vakolatli davlat organi ishtirokida jabrlanuvchiga topshiriladi.



Akmal MUHAMMADOV olgan suratlar.

Agar tahdid hali bartaraf etilmagan bo‘lsa, himoya orderining amal qilish muddati zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining yoki uning qonuniy vakilining arizasiga ko‘ra jinoyat ishlari bo‘yicha sud tomonidan bir yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Qonunda jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zararning o‘rni qoplanishi hamda ma’naviy ziyon kompensatsiyasini talab qilish huquqi aks ettirilmoqda.

Shuningdek, qonunda bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, mazkur yo‘nalishda faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar hamda ularning vakolatlari aniq ko‘rsatib o‘tilmoqda.

Ijtimoiy himoya milliy agentligiga zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi, shuningdek, o‘zlariga nisbatan zo‘ravonlik sodir etish xavfi ostida bo‘lgan bolalarni aniqlash, ularning hisobini yuritish hamda zarur hollarda ularga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar qo‘llanilishini ta’minlash bo‘yicha vazifalar yuklatilmoqda.

Qonun bilan ota-onalar mas’uliyati yana bir karra oshirilmoqda. Jumladan, ota-onalar bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishi, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi hamda zararli ta’sir ko‘rsatuvchi axborotdan himoya qilishi shartligi, bolalarni tarbiyalashda ularni jismoniy jazolash taqiqlanishi nazarda tutilmoqda.

Muhokama jarayonida ushbu qonunning qabul qilinishi bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlariga murosasiz munosabatda bo‘lish va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini ta’minlashga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Bundan tashqari, yalpi majlisda “Ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari hamda ularning qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish borasida “Inson manfaatlari hamma narsadan ulug‘” degan ezgu g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi, shuningdek, uning huzurida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ish boshladi.

Shu munosabat bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligining vakolatlari, shuningdek, aholini qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordam turlarini qonun hujjatlarida aniqlashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur hujjat bilan ayrim qonunlarga Ijtimoiy himoya milliy agentligining zimmasiga dafn etish uchun nafaqani berish vazifasini yuklash, uning xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlarini belgilash, shuningdek, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga va ma’muriy sudlarga murojaat qilishda davlat bojini to‘lashdan ozod etish bilan bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, qonun bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlarga muvofiq o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan 80 yoshga to‘lgan keksalarga qarab turilgan vaqt ish stajiga qo‘shib hisoblanishi uchun davolash muassasasining xulosasi talab etilmaydi.

Shuningdek, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalarga, yolg‘iz yashovchi keksalarga va nogironligi bo‘lgan shaxslarga shahar yo‘lovchi transportidan bepul foydalanish huquqi berilmoqda.

Qonun bilan o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar, yolg‘iz yashovchi keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar yo‘qolgan yoxud yaroqsiz holga kelgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiyalovchi ID-kartasi yoki biometrik pasportini almashtirishda davlat bojini to‘lashdan ozod qilinmoqda.

Shuningdek, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalarga, yolg‘iz yashovchi keksalarga va nogironligi bo‘lgan shaxslarga homiylik qilish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiritilishi belgilanmoqda.

Mazkur qonun ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan aholi qatlamlarining manzilli va samarali ijtimoiy himoya qilinishini kuchaytirish, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish hamda ularning sifatini oshirishga xizmat qilishi senatorlar tomonidan alohida qayd etildi.

Qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Shuningdek, yalpi majlisda “O‘zbekiston Respublikasining davlatlarning kosmik fazoni tadqiq qilish va foydalanish, shu jumladan, Oy va boshqa osmon jismlari (London, Moskva va Vashington, 1967-yil 27-yanvar) faoliyat prinsiplari to‘g‘risidagi Shartnomaga qo‘shilishi to‘g‘risida”gi qonun muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda kosmik faoliyat jahon hamjamiyatining globallashuvi va axborotlashtirish jarayonida muhim o‘rin tutmoqda.

Dunyoning barcha yetakchi va ko‘plab rivojlanayotgan davlatlari tomonidan kosmik fazoni o‘rganish va undan foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilib, kosmik salohiyatdan iqtisodiy, mudofaa, texnik, ilmiy, ijtimoiy, madaniy va xalqaro manfaatlarni amalga oshirish uchun foydalanib kelinmoqda.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro arenada rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, mustahkamlash, xalqaro huquq normalariga muvofiq milliy manfaatlarini hisobga olgan holda kosmik faoliyatni amalga oshirish, shuningdek, texnologiyalar transferini jadallashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lishi hamda xalqaro huquq normalariga asoslangan hujjatlarni qabul qilishi yoki qo‘shilishi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Ta’kidlanganidek, Shartnoma 1967-yil 10-oktabrda kuchga kirgan va 2024-yil holatiga ko‘ra unga 114 ta mamlakat qo‘shilgan.

Shartnomaning ratifikatsiya qilinishi O‘zbekistonning kosmik fazoni tadqiq etish va undan foydalanish, kosmosning barcha hududi va osmon jismlariga erkin kirish, shuningdek, xalqaro kosmik loyihalarda, resurslar va bilimlar almashinuvida qatnashish imkoniyatlarini ochib beradi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik beshinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati.**

# “HUKUMAT SOATI”DA QANDAY MASALALAR KO‘TARILDI?



*Avval xabar berganimizdek, kuni kecha Qonunchilik palatasida bo‘lib o‘tgan “Hukumat soati”da deputatlarning shaharsozlik bo‘yicha milliy standartlar, zamonaviy qurilish texnologiyalari, raqamlashtirish jarayonlari, shuningdek, sohadagi davlat nazoratini yanada kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi savollariga Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri v.b. Sh. Hidoyatov javob berdi.*

## Жараён

Muhokama davomida deputatlar shaharsozlik normalari va qoidalarini takomillashtirish hamda xalqaro zamonaviy normalar bilan uyg‘unlashtirish, loyiha hujjatlarini tayyorlash va ekspertiza qilishda ularga rioya etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratdi. Shuningdek, joylarda o‘tkazgan o‘rganishlari, saylov okruglaridagi uchrashuvlari hamda fuqarolarning murojaatlarida ko‘tarilayotgan dolzarb muammolardan kelib chiqib, vazirga bir qator savollar bilan yuzlandi.

**Xususan, O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi a’zosi Gulruh Agzamova** poytaxt va hududlarda yangi barpo etilayotgan ko‘p qavatli uy-joyning tom qismida shaharsozlik normalari va qoidalariga zid ravishda xonadonlar qurilayotganini aytib, bu holatlar tizimli muammoga aylanmasligi uchun ularning oldini olish bo‘yicha vazirlik tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan qiziqdi.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri v.b. Sh. Hidoyatov bu borada muammolar borligini qayd etgan holda “Shaffof qurilish” platformasida elektron platforma joriy qilinayotgani, u obyektda qurilish ishlari boshlanganda ishga tushishini aytib o‘tdi. Bu vazirlikdan ekspertizadan o‘tganidan keyin obyekt ish boshlashi uchun “online”, ya’ni obyekt pasporti ekanini bildirdi.

Uning qo‘shimcha qilishicha, bu yerda barcha qurilish materiallari, qilinayotgan ishlar resurslari kiritib boriladi. Ma’lumotlar kiritilgan vaqtda nazorat inspeksiyasi platformasi bilan integratsiya qilinadi. Shunda vazirlik “online” ravishda olib borilayotgan ishlarni nazorat qilib boradi. Bu orqali noqonuniy qurilishlarning oldi olinadi.

**O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasining yana bir a’zosi Gulbahor Saidg‘aniyeva** esa hozirda fuqarolar tomonidan kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar “Mening uyim” elektron tizimi orqali amalga oshirilayotgani, lekin avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimiga ulanmagani sababli kommunal to‘lovlarni hisob-kitob qilish bilan bog‘liq qator muammolar yuzaga kelayotganini qayd etdi.

Shuningdek, xalq vakili saylov okruglaridagi uchrashuvlari davomida ham ushbu masalaga doir ko‘plab muammolar ko‘tarilayotganiga urg‘u berib, amaliyotda boshqaruv-servis kompaniyalari tomonidan egalik huquqi e’tirof etilgandan so‘ng shartnoma tuzilmagan bo‘lsa-da, uy-joy avtomatik tarzda kompaniyaga a’zo qilinishi va qarzdorlik hisoblanayotganini aytib, bu borada vazirlik tomonidan qanday choralar ko‘rilayotganini so‘radi.

Berilgan javobda, haqiqatan ham, kommunal to‘lovlar masalasida muammolar borligi, ayrim to‘lovlarni to‘lamagan fuqarolar hisobiga doimiy to‘lab boruvchi fuqarolar qolib ketayotgani, shuning uchun vazirlik tomonidan billing tizimi ishlab chiqilib, respublika bo‘yicha barcha xonadon ushbu tizimga kiritilgani ma’lum qilindi. Aholi “Mening uyim” platformasi orqali o‘z xonadoniga qaysi shirkat tomonidan xizmat ko‘rsatilayotganini ko‘rishi va shirkatlarga baho berish imkoniga ega ekani aytib o‘tildi.

**O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi Anvarxon Temirov** saylovchilar bilan uchrashuvlar jarayonida aholi tomonidan avtoturargohlar yetishmovchiligi bo‘yicha muammolar ko‘tarilayotgani, joylarda qurilgan ko‘plab turarjoy va boshqa obyektlarga turli qurilmalar o‘rnatilgani transport vositalarining erkin kirib-chiqishini cheklashga, oddiy aholining avtoturargohlardan foydalanishiga to‘sqinlik qilayotganini ta’kidlab, bu borada vazirlik tomonidan qanday ishlar amalga oshirilayotganini so‘radi.

Mutasaddilar tomonidan normativ hujjatlarga ko‘ra endi qurilayotgan barcha ko‘p qavatli uylarda har bir xonadonga bittadan avtoturargoh uchun joy ajratilmagan bo‘lsa, ana shu arxitektura qurilish rejalari uchun ruxsat berilmasligi qayd etildi. Hozir Avtomobil nazorati inspeksiyasi bilan hamkorlikda Shaharsozlik kodeksiga qo‘shimcha o‘zgartirish kiritish bo‘yicha loyiha tayyorlanayotgani va tez orada parlamentga kiritilishi bildirildi.

Bundan tashqari, deputatlar tomonidan mahallalarning ichki infratuzilmasini rekonstruksiyalash ishlarining sifatini nazorat qilish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini turarjoy bilan ta’minlash, urbanizatsiya jarayonida aholiga yetarli darajada imkoniyatlar yaratish kabi savollar ham ko‘tarildi.

“Hukumat soati”da berilgan masalalar va ayrim savollarga yetarlicha javob qaytarilmagani xalq vakillarining e’tiroziga sabab bo‘ldi.

Shundan kelib chiqib deputatlar shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati ta’sirchanligini yanada oshirish bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarlari, fikrlari, taklif va tavsiyalarini berdi.

**“Xalq so‘zi”.**

# FRAKSIYALAR HAYOTI

Avval xabar berganimizdek, kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi fraksiyalari hamda yalpi majlisida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2024-yil birinchi yarim yilidagi ijrosi yuzasidan hisoboti, shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor bir qator qonun loyihalari ko‘rib chiqildi.

## O‘zLiDeP

Joriy haftadagi fraksiyalar yig‘ilishlari kun tartibidan o‘rin olgan “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonunga qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi xalq vakillari tomonidan ko‘rib chiqildi. Mazkur qonun loyihasi bilan kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hududida joylashgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini xususiylashtirish alohida qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilanmoqda.

**O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi,** shu bilan birga, **qonunga mas’ul qo‘mita raisi Sharofiddin Nazarov** qonun loyihasining ahamiyatiga to‘xtalib o‘tdi.

*“Amaldagi qonunchiligimizda mazkur masala bo‘yicha ayrim bo‘shliqlar mavjud edi. Xususan, hozirgi “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonunda kichik sanoat zonasi hududidagi ko‘chmas mulk obyektlarining majburiyatlarini to‘liq bajargan mazkur zona ishtirokchisiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish imkonini nazarda tutmas edi. Bu kamchiliklar endilikda loyihadagi yangi normalar bilan to‘ldirilmoqda”.*

## “Milliy tiklanish” DP

Qonunchilik palatasi majlisida bank omonatlarini kafolatlashga qaratilgan qonun loyihasi konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi. Ushbu loyiha bilan davlat tomonidan omonatlarni to‘liq kafolatlash amaliyotidan voz kechilib, kafolatlangan omonat miqdorining yuqori chegarasi belgilanmoqda.

O‘zbekiston **“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari o‘rinbosari Nodir Tilavoldiyev** xorij tajribasidan kelib chiqqan holda loyihadagi ayrim normalarga munosabat bildirdi.

*“Ma’ruzada keltirilganidek, davlat tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning 200 mln. so‘mgacha bo‘lgan omonatlari kafolatlanadi. Bilishimcha, dunyo tajribasida yuridik shaxslarning omonatlari bank tomonidan kafolatlanishi judayam kamdan-kam holatlarda uchraydi. Chunki ular o‘z mablag‘larini bankka qo‘yishi uchun bank ma’lum resurslarini sarf qilishga majbur. Bu esa, o‘z navbatida, kapital bozorimizning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin”.*

## “Adolat” SDP

Temir yo‘l transporti sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi **“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasida** keng muhokamaga sabab bo‘ldi. Xususan, partiya fraksiyasi a’zosi **Muzaffara Abdiyeva** o‘zi saylangan okrug – Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani misolida qonun loyihasi orqali tartibga solinishi kerak bo‘lgan ayrim jihatlarga to‘xtalib o‘tdi.

*“Bugun temir yo‘l stansiyasida kassa ishlamayotgani sababli ko‘plab nuroniylar menga murojaat qilishdi. To‘g‘ri, chiptalarni elektron tarzda olish imkoniyatiga egamiz, ammo yoshi katta insonlarning hammasi ham bu zamonaviy texnologiyalardan foydalana olmaydi. Bundan tashqari, tuman stansiyasida to‘xtab o‘tuvchi poyezdlar sonining kamligi ko‘p sonli aholining uzoq hududlarga borib-kelishida qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. O‘ylaymanki, bu kabi masalalarga qonun loyihasi orqali, albatta, javob topilishi kerak”.*

## O‘zXDP

Davlat dasturining yarim yillik ijrosi bo‘yicha Hukumat hisoboti siyosiy partiyalar fraksiyalari va yalpi majlisida qizg‘in muhokama qilindi. Hukumat tomonidan taqdim etilgan hisobotdan kelib chiqib siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari rahbarlarining munosabatlari eshitildi.

Xususan, **XDP fraksiyasi rahbari Ulug‘bek Inoyatov** partiya elektorati manfaatlaridan kelib chiqib ayrim yo‘nalishlarda takliflarini bildirdi.

*“Avvalo, Hukumat tomonidan davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish, ehtiyojmand yurtdoshlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilayotganini ta’kidlash lozim.*

*Shu bilan birga, dasturdagi ba’zi vazifalar ijrosi o‘z vaqtida ta’minlanmayapti, bu yil yakunidagi umumiy natijalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan yordamning manzilliligini kuchaytirish, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik loyihalarni ishlab chiqishda real holatga tayangan holda narxlarni belgilashni taqozo etmoqda.*

*Biz birlamchi uy-joy bozoridagi kvartiralarni sotib olish uchun dastlabki badalning bir qismini qoplash bo‘yicha subsidiyalar miqdorini real bozor narxidan kelib chiqib belgilashni so‘raymiz”.*

## O‘zbekiston Ekologik partiyasi

Ekologik partiya fraksiyasida davlat dasturining 2024-yil birinchi yarim yilligida bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining hisoboti qizg‘in muhokama qilindi.

**O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari Xayrullo G‘afforov** hisobotdan kelib chiqib partiya pozitsiyasini bildirgan holda og‘riqli jarayon haqida so‘z ochdi.

*“Ayrim hududlardagi o‘rganishlar jarayonida oqova suv tozalash inshooti taxminan 100 ming kub suvni qabul qilib, tozalanmagan holda Sirdaryoga tashlamoqda. Holatni o‘rgansak, Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi o‘zaro kelisha olmay, xalqaro standartlar milliy standartlarimizga to‘g‘ri kelmaydi, degan vajlarni bildirishmoqda. Ushbu vazirliklar tez orada aniq bir to‘xtamga kelmasa, bu holat og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin”,* dedi Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari.

**“Xalq so‘zi”.**

**Yurtimizda 27 – 29-avgust kunlari dunyoning 63 davlati va 30 dan ortiq xalqaro tashkilotlarni birlashtirgan ko‘p o‘lchovli kambag‘allik masalalari (Multidimensional Poverty Peer Network MPPN) bo‘yicha Xalqaro hamkorlik tarmog‘ining 9-yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi.**

## Raye Kvon CHUNG:

# O'ZBEKISTON PREZIDENTINING SA'Y-HARAKATLARI OROL DENGIZI EKOTIZIMINI TIKLASHDA SEZILARLI IJOBIY O'ZGARISHLARGA OLIB KELADI

1 Mazkur loyiha paxta yetishtirishda 90 foizgacha suvni tejash imkonini beruvchi "aqlli" dala texnologiyalari va gidroponika usullaridan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, quyosh va shamol energiyasining qayta tiklanadigan manbalaridan paxta plantatsiyalarini "aqlli" parvarishlash uchun foydalanish mumkin.

Dunyoda birinchi bo'lib uglerodsiz, organik va suvni tejaydigan usullardan foydalanib paxta yetishtirish o'zbek fermerlari uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bu esa ekologik toza paxtani Yevropa, xususan, Italiya va Ispaniya kabi mamlakatlardagi mashhur moda brendlariga sotish imkonini beradi. Natijada fermerlar daromadi oshadi va hududlar iqtisodiyoti jadal sur'atlarda o'sadi.

Ekologik toza paxta yetishtirish loyihasi nafaqat suvni tejashga yordam beradi, balki paxtachilikdan olinadigan foydani ham ko'paytiradi. Bunday loyiha suv resurslarini tejash va fermerlar daromadini oshirish, shuningdek, mamlakat ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi, degan umiddamiz.

Hozir Toshkent davlat agrar universiteti bilan hamkorlikda g'o'zaning ekologik toza navlarini yetishtirish, "aqlli" paykallarni yaxshilash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boryapman. Joriy yilning sentabr oyidan keyingi yilning yoz oylarigacha mo'ljallangan loyihamiz tijorat va sanoat maqsadlarida foydalanishga tayyorlanmoqda.

Ishonchim komilki, ekologik toza paxta loyihasi Orol dengizining tiklanishiga hissa qo'shadi. Ayni paytda O'zbekiston Prezidentiga Orol dengizini tiklash va o'rmonzorlarni ko'paytirish borasidagi qat'iyati va sa'y-harakatlari uchun o'z minnatdorligimni bildirmoqchiman.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari natijasida Orol dengizi mintaqasi ekotizimini tiklashda sezilarli yutuqlar qo'lga kiritilishiga sabab bo'ldi. Bugun biz nafaqat O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashimiz, balki mintaqaviy va global hamkorlik yo'lida olg'a qadam tashlashimiz kerak.

Mintaqaviy va global qo'llab-quvvatlash ijobiy natijalarga erishish uchun muhim omil hisoblanadi. Bunda O'zbekiston hukumatining chora-tadbirlari ham juda muhim. Men mintaqaviy va global hamkorlik samarali natijalar olib kelishiga ishonaman.

Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Orol dengizi fojiasini bartaraf qilish bo'yicha mintaqaviy va global sa'y-harakatlar muvaffaqiyatli davom ettiriladi.

# DUNYO HAMJAMIYATI E'TIROF ETGAN KONSTRUKTIV TASHABBUSLAR

*Iqlim o'zgarishlarining oldini olish, oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan. O'z vaqtida bu borada choralar qabul qilmaslik va "issiqxona gazlari" miqdori ko'payishi oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi haqida mutaxassislar bong urmoqda.*

## Fikr

E'tiborlisi, davlatimiz rahbari global ekologik tahdidlarning oldini olish borasida ilgari surayotgan konstruktiv takliflar hamda tashabbuslarga xalqaro hamjamiyat katta qiziqish bildirib, e'tirof etmoqda.

BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trast fondining tashkil etilishi, "Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish to'g'risida"gi, "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" rezolyutsiyalarining qabul qilinishi shular jumlasidandir.

13-avgust kuni ana shunday hujjatlardan biri – O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Degradatsiyaga uchragan va qurg'oq hududlarda barqaror o'rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ'ib qilish – ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi" rezolyutsiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

Mazkur rezolyutsiya Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan, shahar va qishloq hududlarini ko'kalamzorlashtirish orqali bioxilmaxillikni



saqlash va tiklashga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi asosida ishlab chiqilgan. Unda o'rmonlarni barqaror boshqarish va daraxt o'tqazishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklari har tomonlama ko'rsatilgan.

Rezolyutsiyaning o'ziga xos xususiyati uning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi so'nggi ilmiy yo'nalishlarga muvofiqligidir. Ekologik toza va ekotizimga asoslangan usullardan foydalangan holda biologik xilmaxillikni saqlash va ko'paytirish maqsadida BMTga a'zo mamlakatlarga daraxt ekish sohasida aniq tavsiyalar beriladi.

O'tgan yili 30-noyabrdan 12-dekabrga qadar Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan BMT Iqlim o'zgarishlari to'g'risidagi Hadli konvensiyasi doirasidagi "SOR28" sammitida davlatimiz rahbari iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish borasida qator konstruktiv takliflarni ilgari surgan va mintaqamizdagi tahlikali ekologik holat bo'yicha fikr bildirgan edi.

Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda, ayniqsa, yaqqol sezilayotgani, mintaqada havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'pligi, kuchli chang va qum bo'ronlari odatiy holga aylangani, ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilmaxillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar shular jumlasidandir.

Shu jihatdan, mintaqamizda iqlim o'zgarishlariga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri – Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, uning qurigan tubida o'rmonlashtirish ishlarini olib borish, Orolbo'yi hududi aholisi farovonligini oshirish borasida ulkan ishlar uddalanmoqda.

Birgina misol, so'nggi besh yil davomida Orolning qurigan tubida qariyb 2 mln. gektar maydonga saksovul, cherkes va sho'rga hamda qurg'oqchilikka chidamli boshqa o'simlik urug'lari va ko'chatlari ekildi. Cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" – himoya o'rmonzorlari barpo etish ishlari olib borilayotir. Bu, o'z navbatida, Orol dengizining suvi qurigan tubidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining noxush ta'sirini kamaytirish, global iqlim o'zgarishlari, qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholi hayotiga salbiy ta'sirini yanada yumshatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida 2023-yil davomida 221 ming gektar, xususan, Qoraqalpog'istonda 128 ming, Buxoro viloyatida 40 ming, Navoiy viloyatida 42,5 ming va Xorazm viloyatida 10,6 ming gektar maydonda saksovul va boshqa cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" barpo etilgan. Ayni chog'da jami 12,5 ming gektar maydonda ihota daraxtzorlariga asos solingan.

Qolaversa, bugungi kunda 948 tonna saksovul va boshqa cho'l o'simliklarining urug'lari jamg'arilib, 225 gektarda shu o'simliklar niholxonalari tashkil etilgan. Ularning umumiy maydoni 1,3 ming gektarga yetkazilib, jami 120 mln. tup nihol va ko'chat yetishtirildi. Mamlakatimizda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida esa so'nggi uch yilda ekilgan 630 million tup daraxt va buta ko'chati yangi yashil hududlar barpo etish bilan birga, yurtimiz iqlimini mo'tadil saqlashga, ona tabiatni asrash, xalqimiz salomatligi va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyada aks etgan konstruktiv takliflar global muammolarni bartaraf qilish, ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish imkonini berishi bilan ham e'tiborga molikdir.

**Xayrullo G'AFFOROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari,**
**O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari.**

## DIL SO'ZI

# MAS'ULIYAT BILAN ISHLASHGA UNDAYDI

*Bugun tadbirkorlik sohasi milliy iqtisodiyotning haqiqiy tayanchiga aylandi. Buni, jumladan, yalpi ishlab chiqarishning 46,5 foizi ayni soha vakillari hisobiga to'g'ri kelayotgan bizning viloyatimiz misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Ayni ko'rsatkich negizida esa joylarda faoliyat olib borayotgan va yarim millionga yaqin kishilarning bandligini ta'minlagan 38 mingdan ziyod kichik biznes va ishbilarmonlik subyektlarining mehnati turibdi. Ular tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotlar ichki bozorni to'ldirishdan tashqari ko'plab miqdorda eksportga chiqarilayotgani kishini yanada quvontiradi.*

Tadbirkorlik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, yetarli shart-sharoit yaratib berilmasa, biznes yuritish uncha oson kechmasligini bu ishga qo'l urgan insonlar juda yaxshi bilishadi. Shu jihatdan olganda, yurtimizda yaratilgan qulay sarmoyaviy muhit, soha uchun belgilab qo'yilgan imtiyoz va preferensiyalar, xususan, soliq, bojxona xizmatlari, eksport borasidagi yengilliklar biznesimizga qanot bo'layotganini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Bizning trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonamizning hozirgi darajaga yetishida ham ushbu omillar katta rol o'ynaganini mudom takrorlayman. To'rt yuzdan ortiq kishilar mehnat qilayotgan sexlarimizda, asosan, bolalar uchun qishki kiyimlar tikamiz. Bir yilda 250 ming dona kiyim-kechak ishlab chiqaramiz.

E'tiborlisi, mahsulotlarimizning asosiy qismi eksportga chiqarilmoqda. Birgina o'tgan olti oyning o'zida Rossiya



va MDH davlatlaridagi buyurtmachilarga 3 million dollarlikdan ko'proq mahsulot yubordik.

Mehnatlarimiz e'tirof etilib, davlat mukofotiga loyiq ko'rilganim jamoamizni behad suyuntirdi va faoliyatimizga katta motivatsiya berdi. Aytmoqchimanki, bunday yuksak e'tibor yanada mas'uliyat bilan ishlashga, bildirilgan ishonchga munosib bo'lishga undaydi, navbatdagi loyihalarimizni amalga oshirishga shijoat bag'ishlaydi.

**Abdulhamid MO'MINOV,**
**Namangan viloyatining Davlatobod tumanidagi "Saodat sanoat servis" MChJ rahbari,**
**"Do'stlik" ordeni sohibi.**

## Paxta-to'qimachilik klasteri:

# QO'SHIMCHA QIYMAT ZANJIRI YARATISHNING MUHIM OMILI

*Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qishloq xo'jaligida hayotbaxsh islohotlarga kirishilgach, 2018-yili mamlakatda birinchi bo'lib Rishton tumanida paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etildi. Ezgu maqsad ijobati yo'lida tuman fermerlari bilan astoydil ish boshlab, o'tgan qisqa vaqt mobaynida har gektar yerdan olinadigan hosildorlik avvalgi 28 – 30 sentner o'rniga, o'rtacha 45 – 50 sentnergacha oshishiga erishildi.*



Eng muhimi, paxtachilikda ilm-fan yutuqlari, innovatsiyalar keng joriy etildi. Yuzlab zamonaviy va yuqori unumli texnikalar xarid qilindi, yerga ishlov berish va agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda mutlaqo yangi tizim yaratildi.

Natijada yetishtirilgan xomashyoni to'liq qayta ishlash, ya'ni qo'shimcha qiymat zanjiri yaratish tizimi yo'lga qo'yildi. Hozirda klaster korxonasida 700 nafarga yaqin fuqarolarning doimiy bandligi ta'minlangan. Birgina o'tgan yilning o'zida 7,1 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

2023-yil loyiha qiymati 32 mln. dollar bo'lgan yangi korxona ishga tushirildi. Bu korxona yiliga 20,6 ming tonna kalava ip, mato, momiq sochiq, choyshab mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, yiliga 30 mln. dollarlik eksport amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Germaniya, Italiya, Turkiya hamda Fransiyadan keltirilgan yuqori texnologik uskunalar o'rnatilgan korxonada 500 dan ziyod doimiy ish o'rinlari yaratildi.

Ishlab chiqarish jarayonida energiya tejamkor texnologiyalar qo'llanib, korxona hududida umumiy quvvati 212 kVt/s bo'lgan quyosh panellari o'rnatildi. Bundan tashqari, ilg'or texnik va texnologik qurilmalardan foydalanib, ishlatilgan suvni tozalash tizimi joriy etildi hamda tozalangan suvning 70 foizini qayta ishlatish imkoniyati ta'minlandi.

Shu yilning yakuniga qadar istiqbolli loyihaning ikkinchi bosqichi doirasida qo'shimcha 10 mln. dollar investitsiya jalb etilishi hisobiga yana 500 ta yangi ish o'rni yaratish maqsad qilingan. Hozirgi kunda farmatsevtika yo'nalishida 45 mln. dollar, yog'-moy ishlab chiqarish yo'nalishida 5 mln. dollarlik investitsiya loyihalari ustida ish olib borilmoqda.

Kuni kecha Prezident Farmoniga ko'ra Tadbirkorlar kuni munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimiz qatorida "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandim. Bu kamtarona yutuqlarimiz e'tirofi, kelgusi ishlarimiz uchun rag'batdir.

**Magomed KOSTOYEV,**
**Rishton tumanidagi "Kosto Line Holding" MChJ ta'sischisi,**
**"Do'stlik" ordeni sohibi.**

# O'ZBEKISTON – YANGI OLIMPIYA MAMLAKATI



1 Unda yozilishicha, erkaklar o'rtasidagi boks bahslarida O'zbekiston butun musobaqa davomida ustunlik qildi va yettita oltin medaldan beshtasini qo'lga kiritdi. Xususan, Hasanboy Do'smatov (-51 kg), Abdumalik Xalokov (-57 kg), Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev (-71 kg), Lazizbek Mullajonov (-80 kg) va Bahodir Jalolov (+92) chempionlikni tantana qildi. Hasanboy Do'smatov va Bahodir Jalolov esa ikkinchi marta yozgi Olimpiya o'yinlari chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'lishdi.

"Bundan tashqari, Ulug'bek Rashitov ham taekvondo bo'yicha o'zining ikkinchi chempionligini nishonladi. Mazkur natija O'zbekistonda sport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning to'g'ri yo'sinda olib borilayotganidan dalolat beradi", deyiladi maqolada.

Yana bir unutilmas voqea 26 yoshli dzyudochi Diyora Keldiyorova bilan sodir bo'ldi. U Parijda 52 kilogrammgacha bo'lgan vazn toifasida yaponiyalik mashhur kurashchi Uta Abeni, fransuz Amandin Buyusharni va kosovolik Distriya Krasnichini mag'lubiyatga uchratib, Olimpiya o'yinlari oltin medalini qo'lga kiritgan ilk o'zbekistonlik ayol sportchiga aylandi.

"Kumush medallarni taekvondo bo'yicha Svetlana Osipova, og'ir atletikada esa Akbar Jo'rayev qo'lga kiritdi. Bronza medallariga dzyudo bo'yicha Muzaffarbek To'raboyev (-100 kg), Alisher Yusupov (+100 kg), shuningdek, erkin kurash bo'yicha G'ulomjon Abdullayev (-57 kg) ega chiqdi", deb ta'kidlangan materialda.

"lagazetteaz.fr" axborot agentligi muxbirining yozishicha, Parijda bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari sportning suvga sakrash, kamondan otish va xotin-qizlar kurashi turlarida debyut qildi hamda mamlakatning sport salohiyati yuksalib borayotganini namoyish etdi. Futbol bo'yicha O'zbekiston Olimpiya terma jamoasining yozgi Olimpiya o'yinlariga qo'lga kiritgan ilk yo'llanmasi mamlakatda jamoaviy sport turlari ham rivojlanayotganini ko'rsatdi.

"2024-yilgi yozgi Olimpiya o'yinlari O'zbekistonning yuksak sport salohiyatiga ega mamlakat ekanini bilish imkonini berdi. Xalqaro jamoatchilik 2028-yilda AQShning Los-Anjelesida bo'lib o'tadigan Olimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilarning chiqishlarini intizorlik bilan kutadi", deya qayd etgan "lagazetteaz.fr" jurnalisti.

Nufuzli "Le Figaro" gazetasi saytiga joylashtirilgan O'zbekistonning "Parij – 2024" Olimpiya o'yinlaridagi olamshumul g'alabalariga bag'ishlangan maqolada ta'kidlanganidek, o'zbek sportchilarining natijalari butun dunyoni hayratda qoldirdi. "O'zbekistonning Parijda 13 ta medal, jumladan, 8 ta oltin bilan umumjamoa hisobida 13-o'rinni egallashi mamlakatning sport bo'yicha siyosatidagi o'ziga xos strategiyaning samarasi bo'ldi", deyiladi nashrda.

Gazetada tahlilchi Lukas Obinning quyidagi so'zlaridan iqtibos keltirilgan: "Ba'zi davlatlar o'z sportchilarini ma'lum bir sport turlariga chuqur ixtisoslashtirib, Olimpiya o'yinlarida samarali natijalar ko'rsata olishadi. Masalan, O'zbekiston, shuningdek, bir nechta sport turlarini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishgan Qozog'iston, Ozarbayjon va Gruziyani qayd etish mumkin".

**"Dunyo" AA.**
Parij

# YANGILANISHLAR AHOLI HAYOTIDA YAQQOL NAMOYON BO'LMOQDA

*Prezidentimiz raisligida Buxoro viloyatiga qilingan tashrif natijadorligini oshirish, muqobil energiya manbalarini joriy etish hamda sanoat korxonalari uchun jozibador sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan kuni kecha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida dolzarb masalalar muhokama qilindi. Tumanlarni rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi.*

## Munosabat



Davlatimiz rahbari yig'ilishda muammolarni birma-bir sanab, ularni yechish yo'llarini ko'rsatib o'tdi. Shulardan birinchisi, bu – xizmatlarni rivojlantirish. Chunki viloyatda 584 ta mehmon uyi, 122 ta umumiy ovqatlanish, 18,5 mingta savdo, 30 ta salomatlik va fitnes markazi bor.

Buxoroning taomlari mashhur, lekin har ming kishiga to'g'ri keladigan oshxona va restoranlar soni Samarqanddagidan 10 karra kam. Yurtimizga sayyohlar oqimi oshib borayotgan bir paytda bu borada sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Turizm dunyoda umumiy farovonlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili, desak, yanglishmaymiz. So'nggi yillarda viloyatda bo'layotgan o'zgarishlar, yangilanishlar tufayli bu yerga kelayotgan sayyohlar oqimi yil sayin ortmoqda. Endi Buxoroda yiliga 5 million xorijiy sayyoh kelishi uchun sharoit yaratilyapti. Buning uchun shahar markazida "Boqiy Buxoro" madaniy etnografik parki va yangi aeroport qurilishi boshlandi. Bu, o'z navbatida, viloyatning nafaqat boy tarixiy madaniy merosini muhofaza qilish, uning zamonaviy qiyofasini yaxshilash, pirovardida aholi real daromadini oshirish va farovonligini ta'minlashga zamin yaratadi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda sanoat zonalarida yer ajratishni yengillashtirish, bunga xizmat ko'rsatishni ham qo'shish taklifini qo'llab-quvvatladi. Bundan buyon servis joylarini sotib olish uchun alohida kredit turi – "xizmat ipotekasi" yo'lga qo'yiladi. Tadbirkorlikka e'tibor kuchayar ekan, ularni elektr quvvati bilan ta'minlashga ham ehtiyoj oshishi tabiiy. Shuning uchun yig'ilishda energiyadan oqilona foydalanish masalasiga alohida urg'u berildi.

Yana bir e'tibor qaratish mumkin bo'lgan jihat. Viloyatda 1,5 million tonna meva-sabzavot tayyorlanadi. Bu – Buxoro ehtiyojidan 2 barobar ko'p. Lekin ularning atigi 11 foizi qayta ishlanadi, 30 foizi tashishda isrof bo'ladi. Viloyatni 4 ta kichik agrologistika markazi quvvati 66 ming tonna mahsulotni qayta ishlashga yetadi, xolos. Shu bois Prezidentimiz har bir tumanni sanoat tarmoqlariga ixtisoslashtirish zarurligini ta'kidladi. Masalan, Jondor tumanida uy tekstili bo'yicha 3 mingga yaqin xotin-qizlarda yetarli tajriba bor. Vobkent tumanida voyish usulida uzum, gul va ko'chat yetishtirish yo'lga qo'yilgan.

Buxoro tumanida 27 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatiga ega yangi korxona ishga tushgan. Shu kabi har bir tuman ixtisoslashuvidan kelib chiqib, xomashyo, infratuzilma, kadr va bozor masalalarini qamrab olgan dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Ammo mazkur reja va maqsadlarning ro'yobi uchun professional kadrlar zarur. Ko'p hollarda kasbga o'qitish mehnat bozoridagi talab va yoshlarning qiziqishini hisobga olmasdan, mavjud o'qituvchilar doirasida amalga oshirilyapti.

Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar, ko'rsatmalar ijrosi xalqimiz og'irini yengillashtirish, odamlarni daromadli ish bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, hudud taraqqiyotiga yo'l ochadi. Viloyatni rivojlantirish, xalqni rozi qilish bo'yicha belgilab berilgan aniq vazifalar xalq vakili sifatida biz, deputatlardan ham katta mas'uliyat talab etadi. Bu jarayonda ushbu vazifalar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini kuchaytiramiz.

**Sherzod RAHMONOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

**Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning yanvar – iyun oylarida sug'urta xizmatlari hajmi 4,2 trln. so'mni tashkil etgan.**

# YANGI O‘ZBEKISTON

## ISHBILARMONLAR UCHUN QULAY, IQTISODIYOTI BAQUVVAT VA FAROVON MAMLAKATGA AYLANMOQDA








1

Davlatimiz rahbari 2021-yildan buyon har yili avgust oyida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazib, biznes vakillarida yechimini kutayotgan, yig‘ilib qolgan muammolarini tinglab boradi. Shu asosda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, sohani rivojlantirishga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Biznesni moliyalashtirish, soliq, yer, infratuzilma va tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvni qisqartirish borasidagi muammolar tizimlashtirilib, ularni hal etishga oid takliflar ishlab chiqilyapti. Xususan, 2021-yilda ilk ochiq muloqot doirasida 57 ta, 2022-yilda 55 ta, o‘tgan 2023-yilda esa 56 ta tashabbus ilgari surilib, ijobiy yechim topdi.

Qabul qilinayotgan Farmon va qarorlar biznes egalari faoliyati rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. QQSni 12 foizga tushirish, uni qaytarish muddatini 7 kungacha qisqartirish, 4 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan aylanmadan olinadigan soliq o‘rniga 4 foiz miqdorida yagona soliq stavkasini joriy etish kabi soliq islohotlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, yer uchastkalari yoki mol-mulkni ajratish to‘g‘risidagi qarorni faqat sud orqali bekor qilish tartibining joriy etilishi tadbirkorlar huquqlarini ta’minlash mexanizmlarini kengaytirib berdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan jami 3 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingani ham bu yo‘nalishdagi islohotlar ko‘lamidan darak beradi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 30-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori kelgusida ham har yilgi ochiq muloqotni yanada yuqori saviyada o‘tkazishni nazarda tutadi. Qaror ijrosi asosida joriy yilgi muloqotni uyushtirish bo‘yicha respublika komissiyasi tuzilib, hududiy ishchi guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti oldidan joylarda ishbilarmonlar ishtirokida uchrashuvlar o‘tkazilib, 20-avgust – Tadbirkorlar kunini keng nishonlash choralari ko‘rilmoqda. E’tiborlisi, ushbu bayram arafasida tadbirkorlarni davlat mukofotlari bilan taqdirlashdek ezgu an’anaga ham asos solindi. Kuni kecha davlatimiz rahbarining Farmon va farmoyishiga ko‘ra 37 nafar yurtdoshimiz turli orden va medallar, 104 nafar ilg‘or biznes vakili “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil – Biznes-ombudsman ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatimiz o‘z oldiga 2027-yilga borib, xususiy sektorning YIMdagi ulushini 80 foizga, eksportdagi hissasini 60 foizga yetkazish kabi ulkan maqsadlarni qo‘ygan.

Ta’kidlash joizki, ochiq muloqot yangi davrning o‘ziga xos belgisidir. Zero, yelka tutib, qo‘llab-quvvatlovchi borligiga ishonch har bir tadbirkorni yanada ulkan shahd bilan mehnat qilish, tashabbuslarini yuzaga chiqarishga undaydi. Buni anglab mehnat qilishgani uchun ham xususiy sektor vakillari farovonlik yo‘lida dadil rejalar tuzmoqda. Mulkchilik rivoji yo‘lidagi barcha hayotiy chora-tadbirlar mamnuniyat mezoni hamdir.

### Aniq va samarali islohotlar

O‘zbekistonda to‘plangan bank tizimini o‘zgartirish tajribalariga nazar solsak, markazlashgan rejali va davlat boshqaruvidan voz kechilib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish borasida muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Mamlakatimiz moliya tizimini bozor tamoyillariga o‘tkazish uchun davlat tijorat banklarini qayta qurish va xususiylashtirish kabi keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilyapti.

2020-yilda bank tizimini isloh etishning milliy strategiyasi yaratilishi tijorat banklarini transformatsiyalash ishlarini jadallashtirdi. O‘sha yil 12-mayda “2020 – 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni imzolanib, bank sektorini isloh etish bo‘yicha keng qamrovli strategiya asosida tijoratga asoslangan biznes modellariga o‘tishda sezilarli natijalarga erishildi.



**Sherzod MUSTAFOQULOV,**
**Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor.**

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida, birinchi navbatda, ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhit yaratildi. Bank sektorida davlat aralashuvi kamaytirilib, menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini oshirishga e’tibor qaratildi. Banklarning iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik darajasi pastligi kabi qator tizimli muammolar bosqichma-bosqich hal etib borildi. Moliyaviy xizmatlarning ommabopligi oshirildi, banklarning hududlarga kirib borishi kengaydi va barcha aholi punktida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlash bo‘yicha yetarli choralar ko‘rildi.

> *“Osiyo taraqqiyot banki “Osiyo taraqqiyotining 2024-yil uchun sharhi” hisobotida O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha yangi prognozlarida joriy yilda YIMda 5,5 foizlik o‘sish kutilayotganini ma’lum qildi. 2025-yilda esa bu ko‘rsatkich 5,6 foiz bo‘lishi ehtimoli yaqinligini qayd etdi.”*

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari, jumladan, axborot texnologiyalari, moliyaviy texnologiyalar keng joriy etilmoqda, axborot xavfsizligini lozim darajada ta’minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda inson omili ta’sirini kamaytirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Inson omili bilan bajariladigan ishlarni avtomatlashtirish, ortiqcha mehnat sarfining oldini olish va bank aktivlari sifatini yaxshilash hamda xarajatlarni kamaytirish orqali bankning moliyaviy holatini sog‘lomlashtirishga qaratilgan yangiliklar jadal tatbiq etilyapti. Xususan, tijorat banklari orasida birinchilardan bo‘lib “Mikrokreditbank” “iABS” dasturida ishlovchi “QR-Inventarizatsiya” modulini bank amaliyotiga tatbiq etdi. Natijada bank balansidagi foydalanilayotgan asosiy vositalar hisobi (kirim/chiqimi)ni aniq yuritish tizimi avtomatlashtirildi. Shuningdek, mobil ilova orqali “Inventarizatsiya” qilish yo‘lga qo‘yildi.

Istiqbolli investitsiya loyihalarida tijorat banklari ishtirokini kengaytirish, bank tizimi barqarorligini ta’minlash, xatarlarni xalqaro tashkilotlar va xalqaro moliya institutlari talablariga muvofiq boshqarishga asoslangan bank nazorati tizimida prudensial chora-tadbirlarni qo‘llashning qonunchilik asoslari takomillashtirildi.

“Fitch Ratings” o‘z tahlillarida ma’lum qilishicha, O‘zbekistonda asosiy islohotlardan biri davlat banklarining aksariyati yo‘naltirilgan kreditlashdan voz kechishi va tijorat operatsiyalarini rivojlantirish uchun xususiylashtirilishi bo‘ldi. 2025-yilning oxirigacha amalga oshiriladigan islohotlar banklarning korporativ boshqaruvi va risklarni boshqarish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, prudensial tartibga solishni takomillashtirishni o‘z ichiga oladi.

Osiyo taraqqiyot banki “Osiyo taraqqiyotining 2024-yil uchun sharhi” hisobotida O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha yangi prognozlarida joriy yilda YIMda 5,5 foizlik o‘sish kutilayotganini ma’lum qildi. 2025-yilda esa bu ko‘rsatkich 5,6 foiz bo‘lishi ehtimoli yaqinligini qayd etdi. Bu ham bo‘lsa iqtisodiy islohotlarning hayotimizdagi yana bir ijobiy aksidir.

### Valyuta bozorini liberallashtirish – muhim qadam

Keyingi yillarda barcha jabhada bo‘lganidek, valyuta bozorini liberallashtirish, ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash borasida tizimli choralar ko‘rildi. “Buyuk o‘tmishdan – buyuk kelajak sari” tamoyili ostida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning yangi davri boshlanib, milliy iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlash va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Valyuta bozorining erkinlashtirilishi bu borada xususiy investorlar uchun ham muhim imkoniyat bo‘ldi.

Davlatimiz pul va uning negizida milliy valyuta tizimiga ega. Almashinuv kursini belgilash, valyuta bozori va uning instrumentlari, xalqaro to‘lov tizimining mavjudligi milliy valyuta tizimining zarur elementlari hisoblanadi. Ushbu imkoniyatlarning taraqqiy ettirilishi xalqaro iqtisodiy aloqalar va uning negizida iqtisodiyot rivoji, aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ma’lumki, yaqin yillarga qadar xalqaro ekspertlar O‘zbekiston iqtisodiyotini yopiqdek tasniflashar edi. Valyuta operatsiyalarida cheklovlar, rasmiy va unga yondosh ravishda bozor kurslarining amal qilishi, naqd pul va elektron pul o‘rtasidagi tafovut iqtisodiyotimiz rivojiga sun’iy to‘siq bo‘lib kelgani ham sir emas. Bu hamkor davlatlar bilan aloqalar, xalqaro logistika borasida muammolarga ham sabab bo‘lar edi. Importchi kompaniyalar turli komissiya to‘lovlari va birja kurslari sababli valyutaga bozor kursidan ko‘proq mablag‘ to‘lashga majbur edi, ko‘proq resurs va vaqt sarflardi.

Ushbu vajlar sabab mamlakatimizda mazkur salbiy holatlarga barham berishga e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Markaziy banki almashinuv kurslarini unifikatsiya qildi va valyuta bozorini erkinlashtirdi. Milliy valyutamiz – o‘zbek so‘mining yagona kursi shakllandi, tadbirkorlarning o‘z faoliyatini xalqaro darajada kengaytirish yo‘li ham osonlashdi.

Barcha tadbirkorlik subyektlariga valyutani banklar orqali bozor shartlarida xarid qilish uchun teng imkoniyat yuzaga kelgandan so‘ng bozorda ishtirokchilar soni ko‘paydi, sog‘lom raqobat oshdi, ushbu operatsiyalar uchun samarali kurs, uning erkin xaridi osonlashishi va shaffofligi hisobiga birmuncha tushdi. Valyuta siyosatining ijtimoiy ahamiyatga molik iste’mol tovarlari narxlari barqarorligini ta’minlash bilan uyg‘unlikda amalga oshirilishida hukumatimizning xalqchilligi to‘la-to‘kis namoyon bo‘ldi. O‘z navbatida, bojxona to‘lovlari uyg‘unlashdi.

Bugun ichki valyuta bozorini yanada rivojlantirishda qanday yo‘nalishlar samara beradi? Ushbu savolga atroflicha javob qaytarish mumkin. Ayni paytda Markaziy bank ichki valyuta bozorining asosiy ishtirokchisi bo‘lib, valyuta taklifini ta’minlashdagi roli yuqoridir. Biroq ichki valyuta bozorini rivojlantirish jarayonida bosqichma-bosqich Markaziy bank rolini kamaytirish va tijorat banklarining market-meyker rolini kengaytirish maqsad qilib olingan.

Market-maykerlar, o‘z navbatida, bozor likvidligini oshirish va valyuta taklifi hamda talabini ta’minlash orqali muvozanatli valyuta kursini aniqlashga yordam beradi. Market-maykerlik rolini bajaruvchi banklar sonining ortishi banklararo valyuta bozori faoliyati samaradorligini ko‘tarishga xizmat qiladi. Shuningdek, bugungi kunda ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlovchi va xatarlarni o‘ziga oluvchi, bozor ishtirokchilari o‘rtasida vositachi vazifalarini bajaruvchi markaziy kontragent funksiyasi Markaziy bankda bo‘lib, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda bu vazifani Respublika valyuta birjasiga yuklash rejalashtirilgan.





Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

Kelgusida ichki valyuta bozorini yanada rivojlantirish hamda korxonalarning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tashqi zarbalar ta’sirini yumshatish, valyuta risklarini kamaytirish maqsadida O‘zbekiston respublika valyuta birjasi savdolarida xedjerlash instrumentlari (svop, fyuchers va boshqalar) joriy etilishi ko‘zda tutilmoqda. Raqobat muhitini yanada yaxshilash, yuridik shaxslarga taklif qilinayotgan valyuta sotish va sotib olish kurslarining jozibadorligini oshirish, ichki valyuta bozorida tadbirkorlar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarga zarur bo‘lgan mablag‘larni o‘zlari istagan bank orqali sotish yoki sotib olishda yanada keng qulayliklar yaratishga e’tibor qaratiladi.

Tijorat banklari tomonidan valyuta birjasi va mijozlar bilan chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalarini amalga oshirishda manipulyatsiya holatlarining oldini olish maqsadida jahon valyuta bozori ishtirokchilarining umume’tirof etilgan valyuta bozorida amalga oshiriladigan eng namunali amaliyotlarni o‘z ichiga olgan “Etika kodeksi”ning ishlab chiqilishini jadallashtirish maqsadga muvofiqdir.

### Konvertatsiya tizimida mutlaqo yangicha yondashuv

Yurtimizda valyuta bozoridagi islohotlar va tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilishga qaratilgan qator vazifalar ijrosi doirasida tizimning barcha yo‘nalishini tubdan isloh etishga e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz yetakchisining konstruktiv tashabbuslari bois uzoq muddatga mo‘ljallangan natijalar ta’minlanib, xalq hayoti, tadbirkorlar faoliyatida katta ijobiy o‘zgarishlar yasamoqda.

Ayni paytda yuridik shaxslar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan turli maqsadlar uchun, jumladan, tashqi savdo shartnomalari bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun xorij valyutasini o‘z hisob raqamlari mavjud bankdan ham sotib olish imkoniyatiga ega. Masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlaridagi maxsus funksional orqali operatsiyaning maqsadli xususiyatlari aks etgan hujjatni ilova qilgan holda zarur valyutani o‘z hisob raqamlariga tushirib olishi mumkin. Ya’ni bankda shaxsan ishtirok etmasdan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan qulayliklar ular faoliyatida vaqtni tejash, sifatli xizmatdan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda.

Tijorat banklariga Xalqaro moliya korporatsiyasi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan ustav kapitaliga konvertatsiya qilinishi ko‘zda tutilgan kredit liniyalari jalb etilgan. Yurtimiz tijorat banklarida “Tezkor konvertatsiya” xizmati ishga tushirilishi qisqa muddatda chet el valyutasini sotib olish va xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon beradi. Ariza topshirishdan tortib chet elda hisob-kitoblar qilishgacha bo‘lgan barcha jarayon masofaviy, bank orqali amalga oshiriladi. Mijozlar va ularning buxgalterlari avvalgi davrlardagidek soatlab bankda vaqt sarflashmaydi. Zero, investitsiyalar oqimini oshirish uchun eng katta qadam konvertatsiya masalasining hal etilishidir.

### Jadal investitsiya siyosati

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bozorga yo‘naltirilgan siyosatga o‘tishi butun dunyo bo‘ylab to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dinamikasiga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Ayni paytda O‘zbekiston to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish, qulay biznes muhiti, investorlar himoyasini ta’minlashga qaratilgan qonunchiligi va moslashuvchan siyosati bilan alohida ajralib turibdi. Qolaversa, davlat siyosatini yuritishning muhim jihatlaridan biri shundaki, hukumat ma’lum bir muddat ichida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan strategik rejalarni taklif qiladi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatni rivojlantirish kun tartibidan o‘rin olgan ana shunday ulkan va natijaga yo‘naltirilgan maqsadlardan biri sanaladi.

Ushbu strategiyada mamlakatni o‘rta daromaddan yuqori bo‘lgan iqtisodiyotga aylantirish uchun 2030-yilgacha erishilishi lozim bo‘lgan aniq vazifalar va maqsadlar belgilangan. Bu maqsadga yetishning muhim omili esa investitsiya muhitini yaxshilashdir.

Hukumatimiz kapital bozorlari bilan birga mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni niyat qilgan. Bunga erishish uchun 250 mlrd. dollar miqdorida, jumladan, 110 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklik doirasida 30 mlrd. dollarlik investitsiyalar jalb etish taklif qilinmoqda. Bundan tashqari, hududlarni sarmoyadorlar uchun jozibador ko‘rsatish maqsadida ularning investitsiya reytingini saqlab qolish dolzarb vazifa etib belgilangan.

Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotining o‘sish sur’atlarida jiddiy pasayish kuzatilayotgani bor gap. Ana shunday sharoitda O‘zbekiston milliy iqtisodiyotda katta miqdorda investitsiyalar kiritilishiga ko‘maklashadigan chuqur tarkibiy islohotlar o‘tkazishga intilmoqda. Hukumat qarori bilan xalqaro tajriba, respublika iqtisodiyoti, uning tarmoq va hududlari investitsiya jarayonlari rivojlanishidagi tendensiya hamda muammolar tahlili asosida O‘zbekiston Respublikasining 2025-yilgacha investitsiya siyosati strategiyasi tayyorlandi.

Mazkur strategiyada nimalar rejalashtirilgan? U mamlakatimizda aynan investitsiya faoliyatini kuchaytirish, tegishli muhitni yaxshilashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. 2025-yilgacha investitsiya siyosatining maqsadi – iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va muvozanatini oshirish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish, hududlarni taraqqiy ettirish va aholi farovonligini ta’minlash.

Strategiyaning asosiy vazifalari uchta muhim yo‘nalish bo‘yicha belgilangan, ya’ni investitsiya muhitini yaxshilash, ichki investitsiya manbalarini kengaytirish va investitsiya manbalarining natijadorligini oshirish, samarali chora-tadbirlarni qo‘llash hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish.

2025-yilgacha investitsiyalarning asosiy manbalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, jumladan, davlat-xususiy sheriklik, davlat investitsiyalari va korporativ qimmatli qog‘ozlar sarmoyalari bo‘ladi. 2019 – 2025-yillarda amalga oshirilayotgan hamda istiqbolli yangi investitsiya loyihalari doirasida 1002,5 mlrd. so‘mdan ortiq markazlashtirilmagan investitsiyalar o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, qariyb 30 foizi korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2018-yildagi 30,5 foizdan 2025-yilda 37,5 foizga o‘sishi kutilmoqda. Shuningdek, 2025-yilda jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar miqdori 11 mlrd. AQSh dollariga yetkaziladi, bu ko‘rsatkich 2018-yilda 1,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan.

Ayonki, islohotlarning bosh maqsadi kerakli choralarni oldindan ko‘ra bilishdir. Tafakkur qiladigan bo‘lsak, mazkur dasturiy hujjatlar mamlakatimizning yutuqlarga, natijalarga erishish rejasi hamdir. Zero, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida har bir yil ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish davri bo‘lib qolmoqda.

To‘g‘ri, o‘zgarishlar hech qachon oson kechmaydi, buni hammamiz yaxshi tushunamiz. Lekin yangi O‘zbekistonni barpo etish ushbu mashaqqatlarga arziydi.

**O‘zbekiston milliy an’analari va sayyohlik imkoniyatlari Rossiyaning Sverdlovsk viloyatida o‘tkazilgan “Irbit” XII mintaqalararo ko‘rgazma-yarmarkasida namoyish qilindi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229.
Buyurtma G-842. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.20 Topshirildi — 00.15 1 2 3 4 5 6